GREEN BONDS: ESSENCE, SIGNIFICANCE AND DEVELOPMENT PROSPECTS IN UZBEKISTAN	746
Susanna S. Alieva	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	753
Marupov Qobil Komilovich	
МОДЕЛЬ ЧЕБОЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ БИЗНЕСА В РЕСПУБЛИКЕ КОРЕЯ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ И СРАВНИТЕЛЬНО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ	758
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Ризаева Зумрад Алишеровна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIIYA FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISHDA SOLIQ PREFERENSIYALARINING ROLI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	762
Allaberganova Kumush Javlonbek qizi, Beknazarova N.T.	
AKSIZ SOLIG'INING BUDJET DAROMADLARI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI VA MAZKUR SOLIQNI BUDJETGA UNDIRISH TARTIBINING TAHLILI	769
Nazarova Rushana Ravshan qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA XORIJIY INVESTITSIIYALARNING ROLI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA.....	774
Ibodullayev Dilshod Ibragimovich	
HUDUDIIY INVESTITSION JOZIBADORLIKNI BAHOLASHNING OPTIMIZATSIYALANGAN METODOLOGIYASI: ASOSIIY KO'RSATKICHLARNING KO'P O'LCHOVLI TAHLILI.....	781
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ГЕРМАНИИ	788
Артикова Шохиди Ильясовна	
"YASHIL" TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA KORXONALAR MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	793
Rasulova Nigora Nematovna	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA ASOSIIY KAPITALGA INVESTITSIIYALARNI JALB QILISH YO'NALISHLARI	799
Sultanova Aziza Baxtiyar qizi	



KORXONALARDA INSON RESURLARINI BOSHQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	802
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA ULARNI BAHOLASH USULLARI.....	807
Nazirova Sayyora Baxtiyorovna, Qulmamatova Barno Omonovna, Sharifova Nargiza Djurayevna	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISHNING O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	811
Murodova E'zoza Maqsud qizi	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: ISHLASH MEXANIZMI VA ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH	816
Umarov Bobur Murtazoyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI INVESTITSIYA FAOLLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH	822
Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich	
AGRAR SOHADA KADRLAR TAYYORLASHNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI	829
Boltayev Nurali Shiramatovich	
MAMLAKATIMIZ TURIZM SOHASI XIZMATLAR SIFATI BILAN BOG'LIQ IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	838
Suyunov R. G'.	
ПРОБЛЕМЫ И ОГРАНИЧЕНИЯ В ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	844
Джулибеков Нурмат Каршибекович, Жулиева Гулноз Юлдашевна	
BIZNES JARAYONLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ASOSLARI	849
Yoqubjanov Muminmirzo Nosirjon o'g'li, Erkinxojiev Ismoiljon	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	853
Ernazarov Gulam Bekbaevich	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI	860
Mirzokirov Mirramizjon Mirxoshim o'g'li	
ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ	867
Урунова Мафтуна Гайратовна	
АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ЭКОНОМИКИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ	871
Некова Фатима Борисовна	
MINTAQA SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA KLASSTERLASH VA RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARINING AHAMIYATI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	876
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI TIZIMINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY TASHKILIY-IQTISODIY USULLARDAN FOYDALANISH	882
Kayumov Z.O.	
O'ZBEKISTONDA VALYUTA KURSINING SHAKLLANISHI VA UNING INFLATSIYA DARAJASIGA TA'SIRI MEXANIZMI	887
Matrizayev Zafar Gulimboy o'g'li, Viqorjon Bahriddinov Akbar o'g'li	
MEHNAT BOZORINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI.....	892
Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	



MEHNAT BOZORINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi

Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Email: soatmominovazarnigor@gmail.com

Ollokulova Feruza Mansurovna

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

ORCID:0009-0001-4427-1879

Annotatsiya. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida mehnat bozori barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur maqolada mehnat bozori tushunchasi, uning ishlash mexanizmi, aholiga ta'siri, shuningdek, tarkibiy tuzilmasi va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari kompleks tarzda tahlil qilinadi. O'zbekiston mehnat bozori misolida mavjud muammolar va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari yoritilib, amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, bandlik, ishsizlik, mehnat resurslari, strukturaviy o'zgarishlar, raqamlashtirish, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. In the context of modern economic development, the labor market is an important factor in ensuring sustainable economic growth and social well-being. This article provides a comprehensive analysis of the concept of the labor market, its functioning mechanisms, its impact on the population, as well as its structural composition and current development trends. Using the example of Uzbekistan's labor market, existing problems and перспективные development directions are highlighted, and practical recommendations are proposed.

Key words: labor market, employment, unemployment, labor resources, structural changes, digitalization, economic development.

Аннотация. В условиях современного экономического развития рынок труда является важным фактором обеспечения устойчивого экономического роста и социального благополучия. В данной статье комплексно рассматриваются сущность рынка труда, механизм его функционирования, влияние на население, а также его структурное строение и современные тенденции развития. На примере рынка труда Узбекистана освещены существующие проблемы и перспективные направления развития, а также разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: рынок труда, занятость, безработица, трудовые ресурсы, структурные изменения, цифровизация, экономическое развитие.

KIRISH

Hozirgi davrdagi global integratsiya va iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida mehnat bozori ijtimoiy-iqtisodiy tizimning fundamental bo'g'ini sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur bozor nafaqat ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif mutanosibligini tartibga soladi, balki makroiqtisodiy barqarorlik va jamiyat farovonligining asosiy indikatori vazifasini o'taydi. Shu sababli mehnat bozorining tarkibiy tuzilishi va uning transformatsiya bosqichlarini tizimli tadqiq etish yuqori dolzarblikka ega.



Mehnat bozori arxitekturası iqtisodiy faol qatlam, bandlik xususiyatlari, ishsizlik dinamikasi hamda ishchi kuchining hududiy-tarmoqlararo taqsimoti kabi ko'p qirrali elementlardan tashkil topgan. Shu bilan birga, dunyoda kechayotgan raqamli transformatsiya va texnologik inqilob an'anaviy bandlik modellarini o'zgartirib, masofaviy mehnat hamda servis iqtisodiyotining ulushini oshirmoqda. O'zbekistonda ham ushbu global tendensiyalarni inobatga olgan holda inson kapitali sifatini oshirish va samarali bandlikni ta'minlashga qaratilgan strategik islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgarishlarni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi mehnat bozori strukturasi va uning rivojlanish tendensiyalarini nazariy hamda statistik jihatdan tahlil qilish, asosiy omillarni aniqlash va ushbu yo'nalishda ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehnat bozori strukturasi va uning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish iqtisodiy nazariyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala klassik, neoklassik va zamonaviy iqtisodiy maktablar doirasida keng tadqiq etilgan.

Mehnat bozori nazariyasining asoslari klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, Adam Smith va David Ricardo asarlarida mehnatning qiymat yaratishdagi roli, ish haqi va bandlikning iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan [1]. Ushbu yondashuvlar mehnat bozori muvozanatini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Neoklassik iqtisodiy nazariya doirasida mehnat bozori talab va taklif o'zaro ta'siri orqali shakllanadigan tizim sifatida qaraladi. Bu borada Alfred Marshall mehnat resurslarining samarali taqsimlanishi va ish haqi shakllanishini izohlab bergan [2].

Keynsiy yondashuvda esa mehnat bozori nomukammalliklari va majburiy ishsizlik muammolari asosiy e'tiborga olinadi. John Maynard Keynes fikriga ko'ra, iqtisodiyotda umumiy talab yetishmovchiligi bandlik darajasining pasayishiga olib keladi [3].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mehnat bozori strukturasi institutsional va demografik omillar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Xususan, Paul Krugman tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarda hududiy nomutanosibliklar va migratsiya jarayonlarining mehnat bozoriga ta'siri asoslab berilgan [4].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan mehnat bozori rivojlanishini baholash bo'yicha muhim metodologiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, International Labour Organization tomonidan bandlik, ishsizlik va mehnat resurslari ko'rsatkichlarini aniqlashning standart usullari tavsiya etilgan [5]. Shuningdek, World Bank hisobotlarida mehnat bozori samaradorligi, inson kapitali va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik keng yoritilgan [6].

So'nggi yillarda OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mehnat bozori strukturasi o'zgarishlari, raqamli iqtisodiyot ta'siri va bandlikning yangi shakllari tahlil qilingan [7].

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan mehnat bozori statistik tahliliga oid ishlarda bandlik darajasi, norasmiy sektor va mehnat migratsiyasi masalalari keng yoritilgan [8].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa mehnat bozori rivojlanishining hududiy xususiyatlari, bandlikni oshirish mexanizmlari va mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan [9].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar asosida aytish mumkinki, mehnat bozori strukturasi va rivojlanish tendensiyalarini o'rganish ko'p omilli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu esa iqtisodiy, demografik va institutsional omillarni birgalikda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mehnat bozori — ish kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor. Mehnat bozorining ishtirokchilari ishga yollovchilar, ishga yollanuvchilar va ular o'rtasidagi turli vositachilar hisoblanadi. Turli vositachi firmalar, tashkilotlar va agentliklar mehnat bozorining infratuzilmasini tashkil etadi. Ish kuchi maxsus tovar sifatida uning sohibi tomonidan bozorga taklif etiladi. Ishga yollovchilar mehnat bozoriga talab bilan chiqadi. Ish kuchining oldi-sotdisi bevosita xaridor bilan sotuvchi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri yoki vositachilar ishtirokida yuz berishi mumkin. Bu ishni mehnat birjasi yoki ish topib beruvchi firmalar bajaradi. Ish kuchining oldi-sotdisi mehnat bitimi shaklida rasmiylashtiriladi. Mehnat bozorida ish kuchini sotuvchi bilan uni oluvchi o'rtasida mehnatning kelishilgan narxi — ish haqidir.

Mehnatga talab uning narxi bo'lmish ish haqi miqdoriga nisbatan teskari mutanosiblikda, ya'ni ish haqi oshsa, mehnatga talab qisqaradi, agar u pasaysa, mehnatga talab oshadi. Mehnat bozorida mehnat taklifi ish haqiga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Moddiy muhtojlik sharoitida ko'p ishlab, ko'p pul topishga intilish mehnat taklifini oshiradi.



TAHLIK VA NATIJALAR

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mehnat bozori tub o'zgarishlarga duch kelmoqda. Xususan, yangi kasblarning paydo bo'lishi, an'anaviy ish o'rinlarining qisqarishi, masofaviy ish shakllarining kengayishi va inson kapitaliga bo'lgan talabning ortishi kuzatilmoqda.

Bandlik darajasi va ish bilan ta'minlanganlik darajasi mehnat statistikasi asosiy ko'rsatkichlaridan bo'lib, ular iqtisodiy faollik va jamiyat farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bandlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda aholining daromadi va farovonligi oshadi, kam bo'lgan hududlarda esa ijtimoiy muammolar, kambag'allik va migratsiya jarayonlari kuchayadi. Mehnat statistikasi ishchi kuchining yosh va jins tarkibini ham o'rganadi. Yosh tarkibi davlatga mehnat resurslarini rejalashtirish, ta'lim tizimi va ish o'rinlarini yaratishda yordam beradi. Yoshlar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda ta'lim muassasalari, ish o'rinlari va madaniy xizmatlar bilan ta'minlash muammolari dolzarb bo'ladi, qariyalar sonining ko'pligi esa pensiya tizimi va sog'liqni saqlash xizmatlariga qo'shimcha yuk tushiradi. Jins tarkibi esa ishchi kuchining iqtisodiy faoliyatdagi samaradorligini aniqlashda, bandlik siyosatini shakllantirish va ijtimoiy xizmatlarni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mehnat statistikasi ishchi kuchining sohalar bo'yicha taqsimotini ham o'rganadi. Sanoat, xizmatlar, qishloq xo'jaligi va boshqa sektorlarda ishchi kuchining soni va ulushi iqtisodiy siyosatni shakllantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va resurslarni samarali taqsimlash uchun muhim ma'lumotlarni beradi. Soha bo'yicha bandlik darajasi iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozoridagi talabni aniqlashga yordam beradi. Masalan, xizmatlar sektorida ish o'rinlari yetishmayotgan hududlarda bandlikni oshirish uchun qo'shimcha loyihalar ishlab chiqish zarur bo'ladi. Shu bilan birga, mehnat bozoridagi o'zgarishlar ichki va tashqi migratsiya jarayonlariga ta'sir qiladi, shahar va qishloq hududlarida ishchi kuchining taqsimotini o'zgartiradi, bu esa infratuzilma, transport va ijtimoiy xizmatlarga qo'shimcha talab yaratadi.

Mehnat bozorining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi:

Ishchi kuchi taklifi: ishchilar yoki mehnatga yaroqli shaxslar tomonidan taqdim etilgan mehnat resurslari.

Ishchi kuchi talabi: ish beruvchilar tomonidan kerak bo'lgan ishchi kuchi.

Ish haqi darajasi: mehnat bozorida belgilangan mehnatga to'lanadigan haq miqdori.

Ishsizlik darajasi: ish topishni istagan, lekin ish topa olmagan ishchilarning ulushi.

Mehnat bozori o'z ichiga iqtisodiy omillar, davlat siyosati, texnologik o'zgarishlar va demografik o'zgarishlar kabi ko'plab omillarni oladi. Bu bozorning samarali faoliyat ko'rsatishi iqtisodiyotning umumiy holati va odamlarning turmush darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

- Mehnat bozoridagi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj bilan taklifning mos kelmasligi;
- Kadrlar tayyorlashda ish o'rinlarining murakkabligi hisobga olinmasligi;
- Kadrlar tayyorlashda sifatni ta'minlash;
- Yoshlar o'rtasida kasbga yo'naltirish holati;
- "Ishga joylashtirish"dagi tadbirlar;
- Mehnatga haq to'lash tizimi;
- Kasbning shaxsga va shaxsning kasbga qo'yilgan talablari to'liq emasligi;
- Xotin-qizlarni kasbga tayyorlash;
- Tadbirkorlikka yo'naltirilgan ta'lim.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar mehnat bozorining rivojlanishiga ijobiy turtki bermoqda. Albatta, bu holat muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, hududiy kesimda ayrim o'ziga xos jihatlari ham kuzatiladi. O'zbekiston hududida ba'zi viloyatlarda migratsiya darajasi nisbatan yuqori bo'lib, bu hududiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liqdir. Hududiy iqlim omillari ham muayyan ta'sir ko'rsatadi. Bunda tomonlararo aybdorlik masalasi emas, balki mavjud sharoitlarning tabiiy natijasi namoyon bo'ladi. Hududiy demografik jarayonlarni chuqur o'rganish asosida mutasaddilar tomonidan ushbu hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkinligi haqida asosli xulosalar shakllantirilgan.

Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida, shuningdek, aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda demografik holat muhim o'rin tutadi. 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizda yashovchi doimiy aholi soni 36,8 mln kishini tashkil etib, yil davomida 774,9 ming kishiga yoki 2,2 % ga ko'paygan. Bundan ko'rinib turibdiki, har yili aholi soni o'rtacha 700 ming kishiga ortmoqda. Aholining asosiy qismini, ya'ni 56,3 % ini mehnatga layoqatli yoshdagilar tashkil etgan bo'lsa, o'z o'rnida 32,6 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar va 11,1 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. O'tgan 2023-yilda respublikamizda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 20 505,3 ming kishini tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichni 2016-yil ma'lumotlari bilan taqqoslanganda 1 248,3 ming kishiga yoki 6,5 foizga ko'payganligi kuzatildi. Bu esa o'z o'rnida yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish choralarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblangan bandlik darajasi ko'rsatkichi ma'lum bir ish joyida band bo'lgan iqtisodiy faol aholi ulushini aks ettiradi [1] (1-rasm).



1-rasm. Mamlakatimiz aholisining iqtisodiy faollik darajasi (2010-2024)

Dunyoning qator mamlakatlari, birinchi galda iqtisodiyoti sust rivojlangan davlatlar, aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi, bunga teskari proporsional tarzda iqtisodiyot rivojlanishining past bo'lganligi bilan ajralib turadi. Osiyoning janubiy, Afrikaning Sahroi Kabirdan janubda joylashgan qator mamlakatlarda ana shu jihatlarni ko'rish mumkin. Lekin ularning barchasiga qaramay, agar mamlakat to'g'ri va samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borsa, demografik jarayonlar, jumladan, aholi sonining ortishidan ijobiy natija bo'lishi ham mumkin. Bunga misol tariqasida inson kapitalidan samarali foydalanish orqali demografik bosimdan ijobiy natija chiqarish mumkin. Ma'lumot uchun, Jahon bankining 192 mamlakatda o'tkazgan tadqiqotlariga ko'ra, zamonaviy iqtisodiyotda jismoniy kapital umumiy boylikning 16 foizini, tabiiy kapital 20 foizni, inson kapitali esa 64 foizni tashkil etadi. Yaponiya, Germaniya va Shvetsiyada inson kapitali ulushi 80 foizga yetadi, Rossiyada esa atigi 14 foizni tashkil etadi. Yuqorida qayd etilgan iqtisodiyoti sust rivojlangan mamlakatlarda esa undan ham past daraja saqlanib qolmoqda [7].

Yuqorida olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mehnat bozori iqtisodiy tizimning eng muhim va murakkab tarkibiy elementlaridan biri bo'lib, uning samarali faoliyati mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy farovonligi hamda aholi bandligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mehnat bozori strukturasi o'zaro bog'liq bo'lgan elementlar — mehnat resurslari, ishchi kuchiga talab va taklif, bandlik darajasi hamda infratuzilma orqali shakllanib, ularning mutanosib rivojlanishi umumiy iqtisodiy barqarorlikni belgilaydi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy bosqichda mehnat bozori globallashtirish, raqamlashtirish va texnologik taraqqiyot ta'sirida tub strukturaviy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Xususan, avtomatlashtirish jarayonlari an'anaviy kasblarning qisqarishiga olib kelayotgan bo'lsa, yangi bilim va ko'nikmalarga asoslangan kasblarning paydo bo'lishi inson kapitaliga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. Shu bilan birga, moslashuvchan bandlik shakllari — masofaviy ish, freelancing va qisqa muddatli mehnat shartnomalari keng tarqalib, mehnat munosabatlarining yangi modelini shakllantirmoqda.

O'zbekiston mehnat bozori tahlili uning o'ziga xos demografik va institutsional xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Aholi sonining tez o'sishi, yoshlar ulushining yuqoriligi hamda norasmiy bandlik darajasining salmoqliligi mehnat bozori salohiyatining kengayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi nomutanosiblik, malaka va mehnat bozori talablari o'rtasidagi tafovut hamda hududlar kesimidagi farqlar tizimli rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar va ustuvor yo'nalishlarni belgilab bermoqda.

Mazkur sharoitda mehnat bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni alohida ta'kidlash lozim: birinchidan, ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda modernizatsiya qilish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlash; ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot talablariga mos yangi kasb va kompetensiyalarni shakllantirish; uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish; to'rtinchidan, mehnat migratsiyasini tartibga solish va undan samarali foydalanish; beshinchidan esa, mehnat bozori jarayonlarini prognozlashda zamonaviy ekonometrik modellarni keng qo'llash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozorining barqaror va samarali rivojlanishi kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda davlat siyosati, xususiy sektor faolligi va inson kapitalini rivojlantirish o'zaro uyg'unlashgan holda olib borilishi lozim. Faqat shundagina mehnat bozori iqtisodiy o'sishning drayveriga aylanishi va aholi turmush darajasini izchil oshirishga xizmat qilishi mumkin.



Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, mehnat bozori strukturasi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Mehnat resurslarining tarmoqlar va hududlar bo'yicha samarali taqsimlanishi, bandlik darajasining oshishi hamda ishsizlikning kamayishi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mehnat bozori strukturasi doimiy ravishda o'zgarib boradi va bu jarayonga demografik omillar, texnologik taraqqiyot, migratsiya hamda iqtisodiy islohotlar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, xizmatlar sektorining kengayishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va yangi ish shakllarining paydo bo'lishi mehnat bozori rivojlanish tendensiyalarini belgilab bermoqda.

Shu bilan birga, mehnat bozori rivojlanishida ayrim muammolar, jumladan, hududiy nomutanosibliklar, norasmiy bandlikning yuqoriligi va malakali kadrlar yetishmovchiligi saqlanib qolmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish hamda zamonaviy ish o'rinlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, mehnat bozori strukturasi va uning rivojlanish tendensiyalarini chuqur o'rganish iqtisodiy siyosatni samarali shakllantirish va aholi bandligini ta'minlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Smith, A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London, 1776.
2. Marshall, A. Principles of Economics. – London: Macmillan, 1890.
3. Keynes, J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
4. Krugman, P. Geography and Trade. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991.
5. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook. – Geneva, 2023.
6. World Bank. World Development Report. – Washington, DC, 2022.
7. OECD. Employment Outlook. – Paris, 2023.
8. Ivanov, V. V. Labour Market Economics. – Moscow: INFRA-M, 2020.
9. Abdurahmonov, Q. X. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: Mehnat, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
